XALQ DEPUTATLARI JIZZAX SHAHAR KENGASHINING QARORI

2024 - yil 9 - yanvar VI-57-6-3-55-K/24 Jizzax shahar hokimligi

Jizzax shahrida joylashgan yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha 2024-yilda soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsientini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-659-sonli Qonuni, “Soliq va budjet siyosatining 2024-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida 2024-yilda Jizzax shahridagi yuridik va jismoniy shaxslarning yer solig‘i bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientini kiritish va qo‘llash maqsadida Xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Jizzax shahar Soliq inspeksiyasining 2023-yil 15-dekabrdagi 19/6-14959-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq jizzax shahri uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun Mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari shahar hududlari kesimida 1 gektar uchun soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) uchun hududlar kesimida bazaviy soliq stavkalari 1kv.M uchun soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvi va

oshiruvchi koeffitsiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Jizzax shahar soliq inspeksiyasi (J.Axbo‘taev): Jizzax shahar soliq inspeksiyasi tomonidan budjet daromadlari ko‘rsatkichlarining bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish, qo‘shimcha soliq zaxiralarini aniqlash va soliqqa tortish hamda shaharni iqtisodiy salohiyatini oshirish maqsadida zaruriy chora-tadbirlar ko‘rish hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Xalq deputatlari Jizzax shahar Kengashiga har chorak yakuni bo‘yicha ma’lumot kiritib borsin.

5. Ushbu qaror “Jizzax ovozi” gazetasida chop etilsin va shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Azimov) shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (A.Ergashev) zimmalariga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **K.Xolmurodov**

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2024-yil 9-yanvardagi
VI-57-6-3-55-K/24-son qaroriga
1-ilova

Jizzax shahri uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun Maxalla fuqarolar yig‘inlari kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i stavkalari shahar hududlari kesimida 1 gektar uchun mutloq o‘lchamda soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/R	Mahallalar	Soliq kodeksining 429-moddasiga asosan 1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi, mln.so‘mda	Xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient ***(0,7-3,0)***		Mahallalar kesimida 1 gektar uchun yer solig‘i, mln.so‘mda
			kamaytiruvchi	oshiruvchi	
1	***2***	***3***	***4***	***5***	***6***
1	Alisher Navoiy MFY	61,20		1,10	67,32
2	AmirTemur MFY	61,20	0,90		55,08
3	Bog‘ishamol MFY	61,20		1,00	61,20
4	Bunyodkor MFY	61,20		1,00	61,20
5	Do‘stlik MFY	61,20		1,10	67,32
6	Yoshlik MFY	61,20		1,10	67,32
7	Jizzaxlik MFY	61,20		1,15	70,38
8	Zargarlik MFY	61,20		1,20	73,44
9	Zaxiriddin Muxammad Bobur MFY	61,20		1,10	67,32
10	Zilol MFY	61,20		1,10	67,32
11	Ittifoq MFY	61,20		1,15	70,38
12	Qaliya MFY	61,20		1,00	61,20
13	Qassoblik MFY	61,20		1,00	70,38
14	Kimyogar MFY	61,20		1,15	70,38
15	Madaniyat MFY	61,20		1,15	70,38
16	Mirzo Ulug‘bek MFY	61,20		1,15	70,38
17	Navro‘z MFY	61,20		1,00	64,26
18	Nurliobod MFY	61,20		1,00	61,20
19	Obod MFY	61,20		1,15	70,38
20	Oqqurgonlik MFY	61,20		1,15	70,38
21	Olmazor MFY	61,20		1,00	67,32
22	Ravalliq MFY	61,20		1,05	64,26
23	Sayiljoyi MFY	61,20		1,20	73,44
24	Sayxon MFY	61,20	0,90		55,08
25	Sangzor MFY	61,20		1,00	64,26
26	Tinchlik MFY	61,20		1,00	61,20

27	Toshloq MFY	61,20		1,15	70,38
28	Turon MFY	61,20		1,15	70,38
29	Uratepalik MFY	61,20		1,10	70,38
30	Uch ariq MFY	61,20		1,00	61,20
31	Xayrabod MFY	61,20	0,95		58,14
32	Xalqobod MFY	61,20		1,15	70,38
33	Xamid Olimjon MFY	61,20		1,05	64,26
34	Shodlik MFY	61,20	0,90		55,08

Xalq deputatlari Jizzax shahar
Kengashining
2024-yil 9-yanvardagi
VI-57-6-3-55-K/24-son qaroriga
2-ilova

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) uchun hududlar kesimida bazaviy soliq stavkalari 1kv.m uchun mutloq o‘lchamda soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T/R	Mahallalar	Soliq kodeksining 437-moddasiga asosan 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi, so‘mda	Xalq deputatlari shahar Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koeffitsient ***(0,7-3,0)***		Mahallalar kesimida 1 kv.m uchun yer solig‘i, so‘mda
			kamaytiruvchi	oshiruvchi	
1	***2***	***3***	***4***	***5***	***6***
1	Alisher Navoiy MFY	640,0		1,15	736,00
2	AmirTemur MFY	640,0	0,79		505,60
3	Bog‘ishamol MFY	640,0		1,00	640,00
4	Bunyodkor MFY	640,0		1,12	716,80
5	Do‘stlik MFY	640,0		1,13	723,20
6	Yoshlik MFY	640,0		1,15	736,00
7	Jizzaxlik MFY	640,0		1,00	736,00
8	Zargarlik MFY	640,0		1,25	800,00
9	Zaxiriddin Muxammad Bobur MFY	640,0		1,15	736,00
10	Zilol MFY	640,0		1,20	768,00
11	Ittifoq MFY	640,0		1,15	736,00
12	Qaliya MFY	640,0		1,10	704,00
13	Qassoblik MFY	640,0		1,00	800,00
14	Kimyogar MFY	640,0		1,25	800,00
15	Madaniyat MFY	640,0		1,25	800,00
16	Mirzo Ulug‘bek MFY	640,0		1,25	800,00
17	Navro‘z MFY	640,0		1,10	704,00
18	Nurliobod MFY	640,0		1,05	672,00
19	Obod MFY	640,0		1,10	768,00
20	Oqqurgonlik MFY	640,0		1,20	768,00
21	Olmazor MFY	640,0		1,10	768,00
22	Ravalliq MFY	640,0		1,10	704,00
23	Sayiljoyi MFY	640,0		1,20	800,00
24	Sayxon MFY	640,0	0,75		480,00
25	Sangzor MFY	640,0		1,02	652,80
26	Tinchlik MFY	640,0		1,08	691,20

27	Toshloq MFY	640,0		1,25	800,00
28	Turon MFY	640,0		1,20	800,00
29	Uratepalik MFY	640,0		1,20	800,00
30	Uch ariq MFY	640,0		1,08	691,20
31	Xayrabod MFY	640,0	0,75		480,00
32	Xalqobod MFY	640,0		1,25	800,00
33	Xamid Olimjon MFY	640,0		1,10	704,00
34	Shodlik MFY	640,0	0,80		512,00